



VIZANTIYA - SIVILIZATSIYALAR BESHIGINING UZILMAS HALQASI, G'ARB VA SHARQ MINTAQALARINING OLTIN KO'PRIGI

Narzullayev Sherxon Murotali o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada Vizantiyada o'rta asrlarda hukm surgan feodal yer egaligining shakllanishi va madaniyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Sharqiy Rim imperiyasi, Yaqin Sharq, savdo-sotiq, hunarmandchilik, qulchilik, "Oltin asri", feodal, "Oltin ko'priq".

Аннотация: В статье говорится о становлении и культуре феодального землевладения, сложившегося в Византии в средние века.

Ключевые слова: Восточная Римская империя, Ближний Восток, торговля, ремесла, рабство, «Золотой век», феодализм, «Золотой мост».

Annotation: The article talks about the formation and culture of feudal land ownership that prevailed in Byzantium in the Middle Ages.

Keywords: Eastern Roman Empire, Middle East, trade, crafts, slavery, "Golden Age", feudalism, "Golden Bridge".

KIRISH

Ma'lumki, Vizantiya Rim imperiyasining davomchisi bo'lib, Rim imperiyasining Sharqiy tomonlaridagi hududlarni birlashtirgan hududda vujudga kelgani uchun ham ko'pincha Sharqiy Rim imperiyasi deb ataladi. Vizantiya imperiyasiga ham Osiyo davlatlarining hududi, ham Yevropa davlatlari hududi kirgan. Shuning uchun ham u G'arb va Sharq mintaqalari orasidagi davlat deyiladi. Vizantiya nomining kelib chiqishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yunonlarning Konstantinopol shahri o'rnidagi Megara koloniyasini bosib olishlari Vizantiy nomidan imperiya nomiga asos bo'ladi. Vizantiya hududlari bitta emas, bir nechta hududdan tashkil topgan. Shuning uchun ham u imperiya deb yuritiladi. Vizantiyaning tarkibiga Kichik Osiyo, Yaqin Sharq, hattoki Afrika hududlari ham kirgan⁷. Vizantiyaning o'sha vaqtdagi rivojlanishining va boshqa davlatlardan har tomonlama yuksak cho'qqilarga erishishining sababi Vizantiyaning hududi orollarga yaqin joylashganligi, orollarning ham tutash bo'lganligi, shuningdek, ko'p tomonlama suvli hudud bilan chegaradosh bo'lganligi Vizantiyaning iqtisodiy natijalarga erishishining muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, bu vaqtda Vizantiyada madaniyatning rivojlanishiga ham bosib olgan hududlarda tashkil topgan davlatning tarkibiga yunonlar bo'lganidan keyin barcha manba va qo'lyozmalar yunon tilida bo'lgani ham bu Vizantiya madaniyatining o'sha vaqtda shakllanishiga muhim zamin yaratgan. Bosib olingan Vizantiyaning ichiga kirgan hududlarda ko'proq yevropaliklar bo'lishgan.

⁷ Salimov T,O', Jahon tarixi (Yevropa mamlakatlari V-XV asrlarda), Toshkent, "Unoversitet", 2014. B – 43-44.



Asosiy qism. Ma'lumki, Italiya hududlarida qullarga bo'lgan talab yuqori edi, ya'ni qulchilik bo'lsa-da, bu qulchilik Vizantiyada ham saqlanib qolgan bo'lsa-da, lekin G'arbiy Rim imperiyasidan farqliroq Vizantiya aholisining ko'pchiligini dehqonlar tashkil qilgan. Sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik, ziroatchilik bo'lgan. Suvli hududda joylashganligi sabablaridan biri bo'la oladi, buning. O'sha vaqtlarda iqtisodiy jihatdan barqaror bo'lgan, Vizantiya. Iqtisodiy jihatdan barqaror bo'lishining natijasida Konstantinopol, Aleksandriyada savdo-sotiq va hunarmandchilik yo'lga qo'yilgan⁸. Aynan shu hududlarda yirik savdo markazlari bo'lgan. Nafaqat davlat ichidagi aholi, balki Sharq xalqlari ham o'zlarini qiziqtirgan mahsulotlarni ayirboshlashgan. Bu esa davlatning yanada gullab-yashnashiga olib keladi. Konstantinopol shahriga ham Yevropadan, ham Osiyodan savdogarlar kelib savdo-sotiq qilib ketishgan. Vizantiyaliklar Konstantinopoldan Yevropaning turli hududlariga hunarmandchilik mahsulotlari va zargarlik buyumlarini olib borib sotishgan. Shuning uchun ham imperiya aholisining hayoti yaxshi kechgan. Ma'lumki, Vizantiya imperiya bo'lgani uchun davlatni podsho boshqargan. Podsho senatdan o'ziga maslahat oladi, boshqalarning ham fikr-mulohazalarini inobatga oladi, chunki senat bor joyda o'sish, o'zgarish bo'ladi.

Vizantiya hududi Kichik Osiyoda joylashgan. Ko'p narsalar an'ana sifatida saqlanib qolgan. Yunon madaniyatlari bilan Sharq madaniyatlari qo'shilib ketadi. Shaharlarda esa odamlar hayotida keskin o'zgarish bo'ladi. Shaharliklar jamoa hammomlariga borib turishgan. Vizantiya Yunonistonning qadimgi ilmini saqlab qolgan. Ma'lumki, ilm-fan bo'lgan joyda yuksalish bo'ladi, o'sish bo'ladi. Bu esa chetdan keladigan har qanday bosqinchi xalqning osonlikcha bosib olishiga yo'l qo'ymaydi. Xalq ilm-fan bilan qurollansa, dunyoni ham zabt etishi hech gap emas. Shaharlarning o'sishi, savdo-sotiq va hunarmandchilikning rivojlanishi esa Vizantiyaning yanada gurkirab rivojlanishiga olib keladi va bu Vizantiya hayotida Vizantiyaning "Oltin asriga" olib keladi⁹. Hattoki saroylarda ham vizantiyaliklar ta'lim olishgan. Xalqaro savdo bo'lganidan keyin xalq farovonligi ham yaxshilanadi. Ma'lumki, Vizantiya hududlarining joylashgan joylari bir tomondan O'rtayer dengiziga tutash bo'lganligi savdo-sotiqning yaxshi bo'lganligidan dalolat beradi.

Biz ko'p narsalarni an'ana sifatida tus olgan dedik. Italiyada azaldan qulchilik saqlanib qolgan. Vizantiyada esa qullardan foydalanishgan. Ko'proq suvli hudud bo'lgan Gibraltar bo'g'ozini, Sitsiliya oroliga yurish qilib avvalgi Rim imperiyasining tarqalib ketgan hududlarini bosib olgan. Juda ko'p joylarni bosib olgan Vizantiyaning hududi ham katta hisoblangan. Vizantiyada boshqa davlatlarda bo'lganidek, yer egaligi ham tarkib topgan. Vizantiya hududlarining tobora qisqarib borishi, ma'lum bir hududlarning chiqib ketishi bu asosan yirik feodal yer egaligining shakllanishi va buning natijasida markaziy hokimiyatning zaiflashishi feodallar o'z hududlarini yanada kengaytirib olishini natijasida davlat zaiflashib boraveradi. Erkin dehqonlar esa qaram bo'lib qolaveradi.

⁸ O'sha joyda. B – 43.

⁹ Salimov T,O', Jahon tarixi (Yevropa mamlakatlari V-XV asrlarda), Toshkent, "Unoversitet", 2014. B – 44.



Buning natijasida esa mulkiy tabaqalanish bo'ladi, ya'ni aholi boy va kambag'alga ajralganidan so'ng davlatda tartibsizliklar kelib chiqadi. Oqibatda o'zaro osoyishtalik izdan chiqib boradi. Bu esa davlat aholisining birlashmasligiga olib keladi. Buning natijasida o'sha vaqtlarda yo'lga chiqqan arablar tomonidan Vizantiyaning ko'pgina hududlari bosib olinadi. Shular jumlasiga Suriya va Misr kiradi. Vizantiyada hokimiyat podsho qo'lida emas, balki boshqa bir shaxs qo'lida bo'lganda edi, mulkiy tabaqalanish bo'lmas edi¹⁰. Buning natijasida katta hududlar qo'ldan chiqib ketmas edi. Asosiy mavzu masalasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Vizantiya hududlarining bir necha asrlar mobaynida saqlanib qolmasligining va qo'ldan hududlarining asta-sekin chiqib ketishining sababi boshqaruv tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi va markaziy hokimiyatning mustahkam emasligi sabab bo'la oladi. Agarki aholi toifalarga bo'linib, tabaqalanib ketmaganda edi, o'zaro birlashib tashqi hujumkor davlatlarga qarshi kurashganda edi, Vizantiyaning hududlari chiqib ketish o'rniga ko'payib boraverardi. Turli xil xalqlarning, qabilalarning bostirib kiraverishi ham Vizantiyaning zaiflashishiga, tobora tushkunlikka tushib borishiga sabab bo'ladi. Bu esa arablar, Yevropa xalqlarining bosqinchilik, talonchilik hududlariga aylanib qolishiga olib keladi¹¹. Ma'lumki, barqaror bo'lmagan hududda tinchlik ham bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Vizantiya o'rta asrlar davridagi eng madaniyat cho'qqisiga chiqqan va qudratli har tomonlama boshqa davlatlardan yuksak jihatlari bilan ajralib turadigan davlat deya ayta olishimiz mumkin. Vizantiya madaniyati boshqa hududlarga ham tarqalishi bu Yevropa xalqlarining, Yaqin Sharq xalqlarining yanada rivojlanishiga olib keladi. Vizantiya o'zining maorifi va madaniyati bilan boshqa xalqlarning tarixiga ta'sir ko'rsatadi. Sharq va G'arb mintaqalaridagi shaharlarning, davlatlarning, yozuvlarning muqaddam va muntazam hamda dastavval shakllanishining muhim poydevori bo'ldi. Ya'ni Kichik Osiyo, Yaqin Sharq, Yevropa, Shimoliy Afrikadagi sivilizatsiyalarni yoyilishiga sababchi bo'ldi va bu hududlarning uzilmas halqasiga aylandi. Sharq va G'arb davlatlarini bog'lab turuvchi "Oltin ko'prik" sifatida tarixda nom qoldirdi. Vizantiyadagi shakllangan madaniyat bevosita ko'pgina xalqlarning udumiga, odatiga, madaniyatiga o'zining hissasini qo'shdi. Vizantiya imperiyasidagi barcha umumjihat sifatlar keng hududlar bo'ylab yoyilishiga olib keldi. Bu esa tarixiy taraqqiyot bosqichining mustahkam poydevori bo'ldi. O'rta asrlar tarixida o'zining shuhrati, qudrati, yuqori san'ati bilan alohida davlat sifatida o'chmas iz qoldirdi. Ta'kidlash joizki, bugungi kundagi taraqqiyotning rivojlanishiga nafaqat Osiyo, balki Yevropa mintaqalaridagi xalqlarning bugungi kundagi shu taraqqiyot bosqichlariga chiqishida Vizantiyadagi barcha sohalarning o'rni katta. Bir so'z bilan aytganda, Vizantiya jahon taraqqiyotining uzilmas va uzluksiz qismi bo'lib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

¹⁰ Salimov T.O', Jahon tarixi (Yevropa mamlakatlari V-XV asrlarda), Toshkent, "Unoversitet", 2014. B – 44-45.

¹¹ O'sha joyda. B – 45.



1. Salimov T,O', Jahon tarixi (Yevropa mamlakatlari V-XV asrlarda), Toshkent, "Unoversitet", 2014 – yil, 223-231 b.
2. Qosimov E, Nuriddinov E, Mulladjanova R, Jahon tarixi qadimgi va o'rta asrlar davri, Toshkent, 2013 – yil, 411-427 b.
3. Семенов В. Ф. Ўрта асрлар тарихи. Педагогика институтлари учун. – Т.: Ўқитувчи, 1973.
4. Қурбонғалиева Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўқув-методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1991.